

**ASTRONOMIYA O'QITUVCHILARINING INNOVATSION
SALOHIYATINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK
ASOSLARI**

Tursunova Munisa

Navoiy davlat universiteti talabasi

Ilmiy rahbar: Sayfullayeva Gulhayo

Navoiy davlat universiteti professori

***Annotatsiya.** Maktab o'qituvchilarining innovatsion salohiyatini rivojlantirishda mazkur jarayon samaradorligiga (produktogenligiga) ta'sir ko'rsatuvchi omillar alohida ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun pedagogik tadqiqotlarda o'qituvchining innovatsion salohiyatidagi sifat o'zgarishlari bilan bog'liq pedagogik jarayonlarni tavsiflash maqsadida "salohiyatni yuzaga chiqarish", "salohiyatni dolzarblashtirish", "salohiyatni shakllantirish", "salohiyatni oshirish", "salohiyatni faollashtirish" kabi qator tushunchalardan foydalaniladi. Tadqiqot doirasida salohiyatni rivojlantirish maqsad qilib qo'yilgan bo'lib, u o'qituvchining innovatsiyalarni o'zlashtirish va foydalanishga tayyorgarlik darajasidagi muntazam o'zgarishlar jarayonini aniqroq tarzda o'zida aks ettiradi.*

***Kalit so'zlar:** astronomiya, o'qituvchi, innovatsion, faoliyat, component, salohiyat.*

***Аннотация.** В развитии инновационного потенциала школьных учителей особое значение имеют факторы, влияющие на эффективность (результативность) этого процесса. Поэтому в педагогических исследованиях для описания педагогических процессов, связанных с качественными изменениями инновационной компетентности педагога, используется ряд понятий, таких как «раскрытие компетентности», «актуализация компетентности», «формирование компетентности», «повышение компетентности», «активизация компетентность». Целью исследования является формирование компетенции, которая более точно отражает процесс закономерного изменения уровня готовности педагога к усвоению и использованию инноваций.*

***Ключевые слова:** астрономия, учитель, инновационный, деятельность, компонент, потенциал.*

***Annotation.** In developing the innovative competence of school teachers, factors that affect the effectiveness (productivity) of this process are of particular importance. Therefore, in pedagogical research, a number of concepts are used to describe pedagogical processes related to qualitative changes in a teacher's innovative competence, such as "revealing competence", "actualizing competence", "shaping competence", "increasing competence", and "activating competence". The research aims to develop competence, which more accurately reflects the process of systematic changes in the teacher's level of readiness to assimilate and use innovations.*

***Key words:** astronomy, teacher, innovative, activity, component, potential.*

KIRISH

Olimlarning fikrlariga tayanib aytish mumkinki, rivojlanishning asosini yetuklashmagan psixik funksiyalar, bizning holatda innovatsion salohiyatning qadriyatli-mazmunli komponenti tashkil qiladi. Rivojlanishni oddiydan murakkabga, kamroq sifat ko'rsatkichlaridan, yuqoriroq darajaga, pastdan yuqoriga qarab bosqichma-bosqich harakatlanuvchi jarayon, deb hisoblash o'rinli bo'ladi. Shuning uchun pedagogning innovatsion salohiyati o'zida mazkur jarayon tuzilmasidagi

barcha komponentlarni namoyon qilishni ta'sir ko'rsatadigan ketma ket amalga oshiriladigan faoliyatini aks ettiradi. Bundan tashqari o'qituvchining innovatsion salohiyatini rivojlantirishning asosiy mexanizmi reallashmagan tarkibiy asoslarga maqsadli ta'sir ko'rsatishdir.

Ko'plab tadqiqotlar shundan guvohlik beradiki, ta'lim tizimini takomillashtirish faqat pedagoglarning uzluksiz kasbiy rivojlantirish orqali samarali amalga oshishi mumkin. Albatta bunga erishish uchun ularning innovatsion salohiyatini rivojlantirishga xizmat qiladigan maxsus yaratilgan shart sharoitlar zarur. Shuni alohida ta'kidlab o'tish lozimki, pedagogning innovatsion salohiyatini rivojlantirish kasbiy kompetentlikning bir turi sifatida "inson ontogenezida namoyon bo'ladigan mehnat dunyosining turli jihatlari, shu jumladan, kasbiy rollar, motivatsiya, kasbiy bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirishga yo'naltirilgan ijtimoiylashuv jarayoni"dir. Maktab o'qituvchilarining innovatsion salohiyatini uzluksiz rivojlantirish omillarini tahlil qilish jarayonida akmeologik nuqtai nazar ham alohida o'rin tutadi. Pedagogik akmeologiyaning tayanch g'oyalari asoslanish maktab o'qituvchilarining akmeologik nuqtai nazarini rivojlantirish masalasini tahlil etishni talab etadi. Maktab o'qituvchilarining innovatsion salohiyatini rivojlantirishga qanday omillar ta'sir ko'rsatadi? Mazkur omillarni aniqlash asosida salohiyatning har bir elementiga ta'sir ko'rsatuvchi sohaviy tamoyillar yotishi mumkin. Ana shu nuqtai nazardan maktab o'qituvchilarining innovatsion salohiyatini rivojlantirishga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni tashqi va ichki guruhlarga tasniflash mumkin.

Tashqi omillar – kasbiy faoliyat sharoitida, bu atrofda kishilar va ular bilan o'zaro hamkorlikdagi faoliyat (etik me'yorlar, tashkilotning ichki qoidalari, yuqori obro'-e'tiborga ega kishilarning bosimi va boshqalar) mazmunida namoyon bo'ladigan rivojlanishning harakatlantiruvchi kuchlaridir. Bundan tashqari tashqi omillarga ta'lim tashkilotlari o'rtasidagi yoki bir maktabdagi o'qituvchilar orasidagi raqobatni ham kiritish mumkin. Ichki omillarga pedagogning kasbiy rivojlanishi va o'sishiga taalluqli shaxsiy strategiyalarni kiritish mumkin. Bu shaxsiy ambitsiyalar, o'z-o'zini baholash, o'z o'zini takomillashtirish va o'z-o'zini namoyon etishga motivatsiya kabilardir. Yuqorida bayon etilganidan, innovatsion salohiyatni rivojlantirish dinamik tavsifga ega bo'lib, ichki (sub'yektiv) va tashqi (ob'yektiv) omillar ta'sirida yuzaga chiqadi. Ana shu sababli jamoa, ijodiy guruhlar va alohida pedagogning innovatsion salohiyatini rivojlantirishga ta'sir etuvchi ichki va tashqi omillarning ahamiyatini hisobga olish muhim ahamiyatga ega. Olimlar orasida "metodologik yondashuv" tushunchasini tadqiqotchining metodologik pozitsiyasi sifatida talqin qilinadi. Pedagogikada ilmiy ishlanmalar mualliflari turli metodologik yondashuvlardan foydalanishadi. Ana shu bilan bog'liqlikda pedagogning

innovatsion salohiyatini uzluksiz rivojlantirish uchun metodologik yondashuvlarni tanlash zaruriyati yuzaga keladi. Yuqorida ta’kidlanganidek, innovatsion salohiyat reallashgan (o’tmish), reallashayotgan (hozirgi) va reallashmagan (kelajak) ko’rinishlarda bo’lishi mumkin. Ana shu jihat bilan bog’liqlikda metodologik yondashuvlarni tanlash ham salohiyatning ko’rib chiqilayotgan vaqt bilan bog’liqlikda tahlil qilishga muvofiq bo’lishi kerak. Dastlab kelgusidagi innovatsion salohiyatni rivojlantirish bilan bog’liqlikda metodologik yondashuvlarni aniqlashtirib olish lozim. Chunki salohiyatning bu ko’rinishi rivojlanish strategiyasi, istiqbolni belgilash demakdir. Mazkur maqsadga erishish uchun umummetodologik, ya’ni tizimli va sinergetik yondashuvlar ko’proq mos keladi. Reallashayotgan (hozir) salohiyat tavsifi uni amalga oshirish imkoniyatini yaratuvchi qadriyatli yo’nalganlik, shaxsiy muvaffaqiyatga erishish va muhitni talab etuvchi faoliyatga yo’naltirilgan asosni tashkil etadi. Bunday holatda faoliyatli, aksiologik, akmeologik va muhitga yo’naltirilgan kabi metodologik yondashuvlarning zaruriyatini taqozo etadi. Reallashgan (o’tmish) salohiyat tahlilini shaxsga yo’naltirilgan, antropologik va madaniyatshunoslikka doir yondashuvlar orqali amalga oshirish mumkin (2 rasmga qarang).



2-rasm. *Maktab o’qituvchilarining innovatsion salohiyatini rivojlantirishga doir metodologik yondashuvlar*

Ma’lumki, inson rivojlanishi maqsadli faoliyatda sodir bo’ladi, shuning uchun izchillik va uzluksizlik o’qituvchining innovatsion salohiyatini rivojlantirish uchun alohida ahamiyatga ega. Ushbu holat innovatsion salohiyatni rivojlantirish uchun “harakatlantiruvchi kuchlar”ni izlab topishni taqozo etadi: birinchi darajali harakatlantiruvchi kuchlar o’qituvchining innovatsion salohiyatini rivojlantirishda o’zini ko’p namoyon etmaydi, chunki odatlar, instinktlar va reflekslar ijodiy, o’zgartiruvchi faoliyat bilan deyarli bog’liq emas.

Bundan tashqari, ma’lum o’qitish usullarini qo’llash odati innovatsion o’zgarishlarni sezilarli darajada sekinlashtirishi mumkin. Innovatsiya jarayonida boshqa har qanday sharoitda bo’lgani kabi ikkita holat, ya’ni innovatsiyalar natijasida

kutilgan haqiqiy voqelik va tasavvur mavjud. Faoliyatning butun dinamikasi voqelikning ushbu ikki modeli doirasida sodir bo‘ladi, ammo “bu nafaqat vaqt o‘tishi bilan (mavjud bo‘lgan), balki muammoning shartlari va vazifaning o‘zi (mavjud bo‘lishi kerak) o‘rtasidagi nisbatdagi dinamikadir”. O‘qituvchining innovatsion salohiyatining mavjud darajasi va kasbiy va pedagogik faoliyatga qo‘yiladigan talablar o‘rtasidagi qarama-qarshilik kognitiv motivatsiyaning kuchayishiga va samarali ta‘lim va tarbiya texnologiyalarini ijodiy izlashga intilishga olib kelishi kerak.

Yana bir harakatlantiruvchi kuch – bu hayotiy tajribani yaxlit shaklda aks ettiradigan qadriyatli yo‘nalishlar tizimi. Qadriyatli yo‘nalishlar insonning fikrlari va his-tuyg‘ulari atrofida aylanadigan va ko‘plab hayotiy masalalarni hal qiladigan ma‘lum bir ong tarzini ifodalaydi. O‘qituvchining innovatsion salohiyatini rivojlantirish, albatta, shaxslararo munosabatlar bilan ham bog‘liq. Avvalo, bu uning shogirdlari va o‘qituvchining hamkasblari – buni yaqin doiradagi o‘zaro ta‘sir deb atash mumkin. Keyingi o‘rinda ta‘lim tashkiloti ma‘muriyati va o‘quvchilarning ota-onalari bilan o‘zaro munosabatlar – o‘zaro hamkorlikning o‘rta doirasi deb ataymiz. Va nihoyat, pedagogik jamoa bilan o‘zaro hamkorlik (shahar metodik birlashmalari, mahorat darslari, boshqa ta‘lim tashkilotlari va shaharlardagi hamkasblar bilan kasbiy muloqot) o‘zaro aloqaning uzoq doirasidir. Shunga asoslanib, o‘qituvchilarning shaxslararo munosabatlarining quyidagi algoritmini taklif qilish mumkin:

- a) o‘zaro ta‘sir sub‘ektlari va ularning xususiyatlarini aniqlash;
- b) tashkil etilgan o‘zaro ta‘sir turi, xususiyatlari va sifat miqdoriy xususiyatlarini aniqlash;
- c) o‘zaro ta‘sir qonuniyatlarini aniqlash va ularni tavsiflash.

XULOSA

O‘qituvchining innovatsion salohiyatini uzluksiz rivojlantirishning asosiy qoidalarini ko‘rib chiqish va asoslash uchun ushbu jarayonning nazariy asosini tashkil etuvchi yoki ko‘pchilik olimlar aytganidek, kontseptsianing o‘zagini tashkil etuvchi asosiy qonuniyat va tamoyillarni ko‘rib chiqish zarur. Tadqiqot doirasida maktab o‘qituvchilarining innovatsion salohiyatini rivojlantirishga doir uch guruh qonuniyatlar aniqlashtirildi:

- 1) innovatsion faoliyat qonuniyatlari;
- 2) tashqi qonuniyatlar;
- 3) ichki qonuniyatlar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. A.M. Bozorova oliy Ta‘lim Muassasalarida Astronomiya Kursidan Mashg‘Ulotlarni O‘Qitishda Va Talaba Kompetentligini Oshirishda

- Integratsiyalashgan Innovatsion Texnologiyalarini Joriy ...Journal Of Science-Innovative Research In Uzbekistan 1 (8), 6-11
2. A.R. Sattorov G. I. Sayfullaeva, Methodology of Application of Innovative Educational Technologies from Astronomy to Laboratory Activities 2021/10/29 European Journal of Life Safety and Stability (2660-9630) 125-128
 3. Bozorova Aziza : Sayfullayeva Gulhayo Ixtiyor Qizi Astronomiyadan Stem Dasturidan Foydalanib Quyosh Soati Mavzusini O'qitish - Yosh tadqiqotchi jurnali, 2022 35-38
 4. G.I. Sayfullayeva, H.R. Shodiyev Kredit Modul Tizimida Fanlarni Integratsion Yondashuv Asosida O 'Qitishning Afzalliklari
 5. I.R. Kamolov, G.I. Sayfullaeva -Formation of teacher's competence in the performance of laboratory and experimental works Journal of critical reviews. ISSN-2394-5125, 2020
 6. Alisherovna, M. K. (2021). Formation of a Database in The Assessment of Investment Attractiveness of Auto Transport Enterprises. Central Asian Journal Of Innovations On Tourism Management And Finance, 2(6), 62-65.
 7. M Muhabbat, B Aziza, G.I. Sayfullayeva Elements Of The Credit-Module System In Higher Education In The Republic Of Uzbekistan Web Of Scientists And Scholars: Journal Of Multidisciplinary Research 1 (8 ...
 8. M Muhabbat, B Aziza, G.I. Sayfullayeva Final Control Work Distant. Tsul. Uz Download Instruction To The Distance Learning Platform Web Of Teachers: Inderscience Research 1 (8), 82-86
 9. M Muhabbat, B Aziza, G.I. Sayfullayeva Opportunities For The Use Of Innovative Technologies In The Organization Of Independent Education In The Credit-Module System Web Of Humanities: Journal Of Social Science And Humanitarian Research 1 (8 ...
 10. Alisherovna, M. K. (2021). Tasks of implementation of investment policy. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 11(9), 848-852.
 11. M Muhabbat, B Aziza, GI Sayfullayeva The Use Of Innovative Technologies In The Organization Of Independent Education Web Of Technology: Multidimensional Research Journal 1 (8), 9-11
 12. Alisherovna, K. (2019). Investment support for the activities of motor transport enterprises and their effective utilization. Asian Journal of Multidimensional Research (AJMR), 8(2), 465-471.
 13. Mukhitdinova, K. A. (2020). Analysis of Investment Attractiveness Of The Enterprise. Экономика и социум, (4 (71)), 73-76.
 14. M. Muhabbat, B. Aziza, G.I. Sayfullayeva Advantages Of Independent Education In The Credit Module System In Education Web Of Discoveries: Journal Of Analysis And Inventions 1 (8), 9-13
 15. O'.K. Sunnatova, G.I. Sayfullayeva. Making a vacuum cleaner using the stem education system in students' laboratory classes. Web of Discoveries: Journal of Analysis and Inventions. 2023. 43-47.

16. Alisherovna, M. K. Investment Climate In Uzbekistan And Influencing On Some Factors. Gwalior Management Academy, 47.
17. R. Nilufar, G.I Sayfullayeva Principles Of The Credit-Module System Diversity Research: Journal Of Analysis And Trends 1 (8), 49-52
18. Sayfullaeva Gulkhayo Ikhtiyor Kizi, Shodiev Khamza Ruziculovich, Xaitova Shakhnoza G'olibjon Kizi Conditions For The Formation Of Teaching Innovation Activities Journal of Pharmaceutical Negative Results, 2023 2420-2423
19. SH. Rozikulovich, S. Gulhayo Methodology For Finding The Topic Of The Earth In Distance Education On The Basis Of An Integrative Approach Journal Of Academic Research And Trends In Educational Sciences 1 (10), 21-33 2022
20. Alisherovna, M. K. (2020). Analysis and evaluation of sources of investment in automotive transport enterprises. South Asian Journal Of Marketing & Management Research, 10(4), 74-78.
21. С.С.Канатбаев, И.Р.Камалов, Д.И.Камолова, Г.И.Сайфуллаева. "Universum: технические науки". Россия. Декабрь, 2016. №12(33). 38-40 стр.
22. Mukhitdinova, K. A. (2022). Technical and Economic Condition Of Oil Drilling From The Field Of "Mubarak Ogp" Enterprise.
23. Худойназаров, Ф. Х. (2024). Кичик Бизнес Субъектлари Фаолиятини Рақамли Технологиялар Асосида Ривожлантириш Билан Боғлиқ Бўлган Муаммолар. International scientific journal of Biruni, 3(2), 245-265.
24. Alisherovna, M. K. (2021). Car transport an approach to the research of the essence of investment activities of enterprises. Asian Journal Of Multidimensional Research, 10(5), 415-418.
25. Mukhitdinova, K. A. (2020). The Importance of Sources of Financing of Transportation System. In Наука 2020. Теория И Практика (pp. 23-25).